



TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XARITALASH USULIDAN FOYDALANISH

Qodirov Abdurashid Majidovich -
TDIU huzuridagi ilmiy tadqiqot markazi i.f.d., prof.
Fazliddinova Zulkhumor Akramjon qizi -
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantrishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy tadqiqot markazi, stajyor-tadqiqotchi

doi[®] https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a79

Annotatsiya. Tadqiqot ishida respublikamizda turistik sohani rivojlantrish yo'llari bo'yicha o'rganishlar olib borilgan. Respublikamizda turistik faoliyatni rivojlantrish borasida ma'lum darajada tajriba to'plandi va endilikda ushbu tajribani tahlil qilish hamda umumlashtirish ehtiyoji tug'ilmoqda. Turizmni boshqarish tashkilotlari va turistik firmalar o'z ishida doimo axborot texnologiyalarini o'zlashtirish muammofiga duch kelmoqda. Shu kabi muammolar sababli hududlarda turistik salohiyatni tadqiq etishda va ularning dasturlarini ishlab chiqishda hamda o'zlashtirishda geografik axborot tizimlari (GAT) ni qo'llanishi tavsiya qilinadi.

Kalit so'zlar: turizm, geografik axborot tizimlari, diversifikatsiya, turistik xaritalar, rekreatsion hududlar, turizm salohiyati

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА КАРТИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

Кадыров Абдурашид Мажидович -
Научно-исследовательский центр при ТГЭУ д.э.н., проф.
Фазлидинова Зулхумор Акрамовна -
Научно-исследовательский центр "Научные основы и
проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ,
стажер-исследователь

Аннотация. В ходе исследовательской работы проведены исследования путей развития туристской отрасли в нашей республике. В нашей республике накоплен определенный опыт развития туристской деятельности, и сейчас возникает необходимость проанализировать и обобщить этот опыт. Организации по управлению туризмом и туристские фирмы в своей работе постоянно сталкиваются с проблемой освоения информационных технологий. В связи с аналогичными проблемами целесообразно применять географические информационные системы (ГИС) при исследовании туристского потенциала в регионах и при разработке и освоении их программ.

Ключевые слова: туризм, географические информационные системы, диверсификация, туристические карты, рекреационные районы, туристический потенциал

USE OF MAPPING METHOD IN TOURISM DEVELOPMENT

Kadirov Abdurashid Majidovich -
Research Center at TSUE d.e.s, prof.
Fazliddinova Zulkhumor Akramjon kizi -
Research Center "Scientific foundations and
problems of development Economy of Uzbekistan"
at TSUE, trainee researcher

Annotation. In the research work, studies were carried out on the ways of development of the tourist sphere in our republic. A certain level of experience has been gained in the development of tourist activity in our republic, and now there is a need to analyze and summarize this experience. Tourism management organizations and tourist firms are constantly faced with the problem of mastering information technology in their work. Due to similar problems, it is recommended to use geographic information systems (GIS) in the research of tourist potential in the regions and in the development and development of their programs.

Keywords: tourism, geographic information systems, diversification, tourist maps, recreational areas, tourism potential

Kirish. Mamlakatimizda turizmi sohasini jadal rivojlantrish, turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish orqali turizm sohasini iqtisodiyotning yetakchi strategik sektoriga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olinganligi sababli turizm sohasining investitsion jozibadorligi va faolligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Turistik sohani rivojlantrishda yangi texnologiya va dasturlar kerak bo'lmoqda. Shu kabi muammolaridan kelib chiqqan holda, bugungi kunda turizm geoaxborot texnologiyalari qo'llaniladigan odatiy soha hisoblanadi. Mamlakatimizda ularni odatda turistik xaritalar, bukletlar va ichiga xarita hamda sxemalar kiradigan boshqa elektron, nashrli mahsulotlarni tayyorlash uchun foydalanimoqda.

Bugungi kunda axborot shu qadar ko'pki, uni an'anaviy usullar yordamida tezkor tahlil qilishning iloji yo'q. So'nggi o'n yilliklarida axborot tizimlarning yangi ko'rinishlari vujudga keladi. Inson hayotida foydalaniladigan barcha sohalarni kompyuterlashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Misol qilib: boshqarish, o'qitish, sog'lioni saqlash, qishloq xo'jaligi va bir qancha boshqa sohalarni olishimiz mumkin. Hozirgi kunda barcha sohalarda keng qo'llanayotgan va eng samarali rivojlanib kelayotgan tizimlardan biri Geografik axborot tizimlaridir ya'ni qisqa qilib aytganda GAT. Geografik axborot tizimi (GAT) mavjud olamning obyektlari hamda sayyoramizda ro'y berayotgan hodisalarni xaritalash va tahlil qilish uchun kerak bo'ladigan zamonaviy kompyuter texnologiyalaridir. Bu texnologiya ma'lumotlar bazalari bilan ishlashning an'anaviy usullari (so'rov va statistik tahlil) va xarita yordamida olinadigan ma'lumotlarni (har tomonlama ko'rish va geografik (fazoviy) tahlil) umumlashtiradi.

GAT ni boshqa axborot tizimlaridan ajratib turadi va uni ko'p masalalarda qo'llanishiga yordam beradi. Bu texnologiya insoniyat faoliyatining deyarli barcha sohalarda qo'llashmoqda. Bunga odamlarning ko'payishi, yerlarning ifloslanishi, o'rmonlarning qisqarishi, tabiiy ofatlar kabi global muammolarning tahlili, hamda punktlar orasidaga eng qulay marshrutni topish, yangi ofisning optimal joylashishini tanlab olish, uyni uning adresi bo'yicha qidirish, joyda quvurlarni o'tkazish, har xil hokimiyat masalalari kabi kichik masalalarni yechish kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Hozirgi vaqtida turizmni valyuta boyligi sifatida talqin qilayotgan olimlar monetaristlar guruhi bo'lib, ularning fikricha, turizm albatta, xalqaro biznes bo'lib, iqtisodiy natijasi boshqa davlatdan valyuta olib kelganligi bilan o'lchanishi lozim.

Turizmnинг rivojlanishini o'rganishda empirik tadqiqotlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan tahlilning nazariy usuliga tayanish lozim. Xalqaro savdo va xalqaro moliya nazariyalari juda samarali bo'lib, ular birgalikda jahon xo'jaligi aloqalarining iqtisodiy nazariyasini tashkil etadi.

Turistik xizmatlar eksporti va uning turli shakllarini rivojlanishning nazariy jihatlari A.Alonso va A.Ogle xorijlik olimlarning asarlarida "turistik xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilish xorijiy turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlar assortimentini kengaytirish ma'nosini anglatadi" deb ta'rif berilgan[1]. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyat muhim tarkibiy qismi sifatida turistik xizmatlar eksportining ilmiy-nazariy masalalari va turistik xizmatlar diversifikatsiyasining

rivojlanish tendentsiyalarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan V.I.Azar, V.A.Kvartalnovlarning ilmiy-tadqiqot ishlari e'tiborga molik [2].

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida turistik xizmatlar eksportini rivojlanish muammolari bo'yicha "Raqamli iqtisodiyot asosida turistik xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari" to'g'risida K.X.Abduraxmonov, M.E.Po'latov kabi O'zbekiston olim va mutaxassislarining asarlarida ham yoritilgan [3].

T.R.Gareevning «5K» kontseptsiyasi asosida: ixtisoslashuv, kooperatsiya, kontsentratsiya, kombinatsiyalashuv jarayonlarini o'rganish orqali mintaqalarda rekreatsiyani rivojlanishning yangi strategiyalari ishlab chiqilgan hamda rivojlanishda yettilik gravitatsion halqani amaliyotga jadal joriy etish orqali mintaqaning kichik birlikdagi rekreation faoliyat ishtirokchilaridan tortib, xalqaro darajadagi ishtirokchilar faoliyatini aniq o'rganish, ulardagi muammolarni aniqlash va ularga mos yechimlar topish usullari ishlab chiqilgan [4]. Bugungi kunda rekreatsiya ishlab chiqarish stresslarini, asab-psixologik bosimlarni yo'qotuvchi qobiqqa aylanib bormoqda. Bizning fikrimizcha, rekreatsion ob'ekt – insonlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash imkoniyatini taqdim etuvchi tabiiy va antropogen obyektlar sanalib, ular turistik-rekreatsion xizmatlarni amalgalashiradi [5].

Hozirgi paytda O'zbekistonda turistik xizmatlar eksportining xususiyatlari va diversifikatsiyalashning kontseptual yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash, turizm sohasida hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlovchi maqbul tizimni yaratish zarurati namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, turizmni rivojlanish davomida mintaqaviy siyosatni barqarorlashtirishga olib keladi.

Faol mintaqaviy siyosatni olib boradigan ushbu davlatlar rivojlanmagan hududlarni rivojlanish, sanoat zonalarini qayta qurish, aglomeratsiyalarni nomarkazlashtirish va maxsus turistik maydonlar, klasterlarni shakllantirish va boshqalar bilan ajralib turadi [6].

Jahon amaliyotidan hududlarni rivojlanishning uch xil ehtimoliy varianti ma'lum bo'lib, ular shundan iborat: ilg'or hududlarni rivojlanish va qo'llab-quvvatlash zarur, qolganlar esa bu hududlar hisobiga mavjud bo'lishi mumkin (AQSh); barcha hududlarda taxminan bir xil turmush sharoitlarini qo'llab-quvvatlash, eng kambag'al hududlarni qo'llab-quvvatlash lozim, ilg'orlar esa mustaqil rivojlanishi oladi [7].

Hududlarni rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishda GAT texnologiyalarini rivojlanish bo'yicha oxirgi bir necha o'n yillardan buyon insoniyat axborot suronini boshidan kechirmoqda. U yildan-yilga kuchayib, inson faoliyatining ko'plab sohalari ga kirib bormoqda. Bugungi kunda kartograflar ko'plab manbalardan olinadigan axborotlardan foydalanish mobaynida topografik, turli mavzuli geografik kartalar va atlaslarni tuzish, aero- va kosmik tasvirlarni deshifrovka qilish, dalada o'lchash nati-

jalarini qayta ishslash va kompyuter tizimlarida ma'lumotlarni to'plash bo'yicha boy tajribaga ega-lar. Ma'lumotlarning ko'plab turlarini vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgarib turishi, oddiy usulda tuziladi-gan qog'ozli kartadan foydalanishni ancha qiyin-lashtirib yubormoqda.

Bugungi kunda tezkor axborotlarni qabul qilish, ularning dolzarbligini ko'rsatish faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. Shu o'rinda zamonaviy GIS – bu ko'p miqdordagi grafikl va mavzuli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan modelli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma'lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli xulosalar chiqarish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi [8].

Geografiya fanlari nomzodi, dotsent A.A. Ibraimova mintaqada turizm va rekratsiya obyektlarini tahlil qilishda GAT texnologiyalari orqali amalga oshirish tahlilning samarali va aniq bo'lishida yordam berishi haqida ilmiy izlanishlarida ta'kidlab o'tgan [9]. Bundan tashqari geografiyada sonli metodlarni o'rganish AQSH, Kanada, Angliya, Shvetsiyada kuchli e'tibor qaratilgan.

Adabiyotlarni bir – biri bilan solishtirganda shu ayon bo'ldiki yuqorida tizim birinchi GAT hisoblanadi. Bu sistema fazoga taqsimlangan ma'lumotlar bilan ishni olib borgan. Karta yaratishning bu texnologiyasi bugungi kunda, birinchidan- sezilarli darajada universallashgan, ikkinchida - juda tez rivojlanayotgan, inson faoliyatining hamma sohalarini qamrab olayotgan jarayondir. Geografik axborot tizimlari sohasida asosiy bilimlarni beruvchi rus va chet mamlakatlar halqlari tillaridagi kitoblarda va GISning turli sohalariga oid bo'lgan monografiyalar va konferensiya materiallari orqali tadqiqotchilar GIS tizimiga ham nazorat va ham amaliy yangiliklar kundan kunga ko'plab kiritmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil qilish va tanlanma kuzatishning umumilmiy metodlarini o'z ichiga oluvchi tizimli yondashuv tashkil etadi. Amaliy tadqiqotlar emperik baholashlar esa iqtisodiy-matematik metodlarga asoslangan. Hududiy iqtisodiy tizimda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar va hududiy boshqarish sifatini baholashda boshqaruning funksional tahlili va ekspert baholash metodlari qo'llanildi. GAT texnologiyasida kartogramma, kartodiagramma, sifatlari fon, miqdorli fon metodlari dan foydalanilgan.

Yuqorida fikrlar va mulohazalarni hisobga olgan holda, taqqoslash usulini qo'llangan orqali ushu tadqiqot O'zbekiston turistik salohiyati o'rgani va ilg'or xorij tajribasi bilan taqqoslangan holda tahlil (muhokama) qilinadi. Bir qator taqqoslashlar asosida munozaralar va xulosalar chiqarilib, rekratsion hududlar nazoratini samarali tashkil qilish bo'yicha takliflar beriladi. Shuningdek, geografik

axborot tizimi dasturlari yordamida ham mintaqahlar o'rtasida taqqoslash, baholash, matematik hisob kitoblar olib boriladi.


Tahlil va natijalar. Turizmnning mohiyati, bu sohaning rivojlanish manbai bo'lgan turistik resurslarga chambarchas bog'liqdir. Mamlakat qanchalik turli-tuman turistik resurslarga boy bo'lsa, turizm shuncha tez rivojlanadi. Turistik resurslarning turizmdagi ahamiyati uning ijtimoiy iqtisodiy mazmu-nidan kelib chiqadi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha tufayli, ushbu sohaga davlatimiz alohida e'tibor qaratmoqda.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki turistik resurslarga berilgan ta'riflarda hamon turli qarashlar mavjud. Bularni tadqiq qilib, turistik resurslarga quyidagi ta'rifni berdik: Turistik resurslar deyilganda, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi, intellektual salohiyatini rivojlantirish kabi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, turizm faoliyatini tashkil etishga asos bo'lувchi tabiiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa obyektlar tushuniladi.

Shuning uchun ham turistik resurslarga hudduda turistik maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan yuqorida nomlari keltirilgan barcha obyektlar kiradi. Ta'kidlash lozimki, turizmni tashkil etishda turistik resurslardan turistlarning barcha talabini qondirish uchun to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Turizm faoliyatida ko'pgina qo'shimcha xizmatlar, ya'ni yashash uchun joylashtirish, ovqatlan-tirish, sayohat qilish va transport xizmatini tashkil etish kabilardan foydalanish orqali turistik resurslar samarador-ligini oshirish mumkin. Bunga erishish uchun turistik resurslarni asosan ikki guruhga bo'lishni lozim: birlamchi resurslar (tabiiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy) va ikkilamchi resurslar (joylash-tirish va ovqatlanish obyektlari, sayo-hatni tashkil etuvchilar, transport xizmati, ko'ngil-ochar obyektlar, axborot resurslari, servis tarmog'i kabilar).

Mamlakatimizda birinchi guruh resurslar yetarli. Hozir ikkinchi guruh resurslarni yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Shu tufayli kelayotgan turistlar soni ham yildan-yilga oshib bormoqda.

Mazkur tahlil ko'rsatmoqdaki, umumiy turistik oqim shu 9 yil davomida keskin o'zgargan emas. Ammo O'zbekistonga xorijlik turistlarning kelishi 2019-yilda ancha kamaygan, lekin 2020-yildan boshlab mutazam oshib bormoqda va 2022-yilda uning soni 370,1 ming kishini tashkil etgan. Ammo, bu ko'rsatkich xalqaro ekspertlarning baholariga ko'ra juda kam. O'zbekiston yirik turistik resurslari ga ega bo'lishiga qaramasdan, uning salohiyatidan yetarli darajada foydalana olmayapti. Shu sababli, turistik resurslardan oqilona, to'laqonli foydalanish hamda uni mintaqqa iqtisodiyotida etakchi tarmoqlar qatoriga yetkazish masalasi o'ta dolzarb hisoblanadi.




1-rasm.O'zbekiston Respublikasida turistlarga ko'ssatilgan xizmatlarning 2014-2022-yillar davomida o'zgarishi (ming kishi)

Manba: «O'zbekturizm» MK materiallari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekistonda tarixiy-madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatiga ega 7 mingdan ortiq turistik obyektlar mavjud. Statistika ma'lumotlariga asosan ulardan 545 tasi arxitektura, 578 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'i arxeologik ahamiyatiga ega obyektlardir. Undan tashqari, respublikamizda 300 dan ortiq muzeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik

ziyorat obyektlarining miqdori Toshkentda 144 ta, Samarqandda 118 ta, Buxoroda 201 ta, Xivada 310 tani tashkil etadi. Bu esa, mamlakatimizda diniy turizm, tarixiy obidalar turizmi, ekologik turizm, arxeologik turizm, sog'lomashtirish turizmi, ekskursiya (tanishuv, ko'rish) turizmi kabi turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqoriligini ko'stadi.



2-rasm.O'zbekiston Respublikasida madaniy meros obyektlari xaritasi


Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Mamlakatimizning barcha hududida sayyohlikni rivojlantirish va sayyohlik xizmatlari eksport salohiyatini oshirishga doir manzilli tadbirlar dasturi ham tasdiqlangan. Bundan tashqari, yurtimizda ichki turistik imkoniyatlarini targ'ib qilish, sayyohlik bazalari, dam olish zonalari, pansionatlar, sanatoriylar, kurort va ekosayyohlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir keng ko'lamli ishlar amalgalashishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy mehmonlar orasida sayyohlikning ekologik, diniy-ziyorat, folklor-etnografik, ilmiy-ma'rifiy turlari ixlosmandlari ham bo'lganligi tufayli ekspozitsiyalarda sayyohlik va dam olish infratuzilmalari, yurtimiz va

xorij sayyohlarini qabul qilish uchun sog'lomlashtirish zonalari va sanatoriylarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasini ijtimoiy-iqtisodiy kompleksning muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylantirish uchun barcha sharoit mavjud. Ushbu soha yangi ish o'rnlari yaratish, aholi farovonligini oshirish, valyuta va soliq tushumlari ko'payishida muhim o'r'in tutmoqda.

Umuman, yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekistonning turizm salohiyati turli tarixiy obidalar, bino, inshoot va boshqa joylarning hozirgi ahvolining qay holatda bo'layotganligini aks ettiradi.



3-rasm. O'zbekistonda turizm salohiyati tarkibi

Manba: statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

3-rasmga asosan, 9 ta turizm salohiyatini aks ettiruvchi salohiyat tarkibi keltirilgan. Ular rivojlanib bormoqda. Chunki, turizm sohasida chet ellik sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirish uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Aniqroq qilib aytganda, mamlakatimizdagi faqatgina tarixiy, madaniy va arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar soni 4,0 mingdan oshadi. Ulardan 545 tasi me'moriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at va 550 tasi arxeologik obidalardir. Xususan, turizm obyektlari Xivada 310 ta obyekt, Buxoroda 221 ta obyekt, Toshkent shahrida 144 ta, Samarqandda 118 ta va Jizzax viloyatida 372 ta obyekt bor. Shuningdek, 12 ta tabiiy qo'riqxona, 16 ta buyurtma va 2 ta milliy parklar, betakror tabiat, tabiiy go'shalar, hayvonat va o'simlik olami ekoturizmnı rivojlantirishda juda katta turistik resurslar hisoblanadi. Ushbu turistik joylar-

da turistik oqim turistik marshrutlar yaratilgandan keyingina ko'payadi. Bu borada "O'zbekturizm" millyi kompaniyasi tomonidan tashkil etilayotgan marketing loyihalari "mega-info-turlar" yaxshi samara bermoqda. Ushbu loyiha doirasida Italiya, Ispaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya, Niderlandiya, Vengriya, Singapur kabi ko'plab mamlakatlarning ikki yuzdan ziyod sayyohlik kompaniyasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bularning natijasida, eng asosiysi, yurtimizga kelayotgan sayyohlar oqimi ko'paymoqda. Bu esa mamlakatimiz turizm sohasida berilayotgan katta e'tiborning sa'marasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Samarqand viloyati shahar va tumanlaridagi turistik resurslarni sifat jihatdan baholash amalgalashirildi(1-jadval).

Samarqand shahri va viloyat tumanlaridagi turistik resurslar salohiyatini sifat jihatdan baholash

No	Tumanlar	Tabiiy turistik resurslar	Madaniy-tarixiy turistik resurslar	Ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar	Turistik resurslar salohiyatining o'rtacha miqdori
	Samarqand shahri	4	10	9	7,7
1	Bulung'ur	8	3	2	4,3
2	Jomboy	9	4	4	5,7
3	Ishtixon	4	3	2	3,0
4	Kattaqo'rg'on	5	4	6	5,0
5	Narpay	4	3	4	3,7
6	Nurobod	9	8	2	6,3
7	Oqdaryo	4	3	2	3,0
8	Payariq	4	3	3	3,3
9	Pasdarg'om	6	3	3	4,0
10	Paxtachi	4	3	2	3,0
11	Samarqand	10	9	7	8,7
12	Toyloq	7	4	4	5,0
13	Urgut	10	8	7	8,3
14	Qo'shrabod	6	8	2	5,3

Manba: jadval tadqiqot materiallari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. So'rov natijasida 10-8 ballni – juda yuqori, 7-6 ballni – yuqori, 5-3 ballni – o'rta, 2-1 ballni – past degan xulosaga kelindi.

Mazkur tahlil tabiiy turistik resurslar bo'yicha Urgut, Nurobod, Qo'shrabod, Jomboy va Samarqand tumanlarida yuqori salohiyatga egaligini ko'rsatdi. Buni Urgut, Nurobod va Qo'shrabodning tog'li o'lkalari, Nurobodning bepoyon dashtu cho'llari, Jomboy tumanining Zarafshon daryosi sohillari, «Zarafshon» qo'riqxonasining mavjudligi, Samarqand tumanini antropogen landshaftlarga boyligi bilan izohlash mumkin. Samarqand shahri shu o'rinda madaniy-tarixiy turistik resurslarning eng yuqori salohiyatiga ega. Shu kabi Urgut, Samarqand, Payariq tumanlari ham yuqori madaniy-tarixiy turistik resurslar salohiyatiga egadir. Bu esa Samarqand shahri, Urgut va Samarqand tumanlarida turistik resurslarning yuqori salohiyatiga, Kattaqo'rg'on, Nurobod va Jomboy tumanlari o'rta salohiyatga egaligini ko'rsatadi.

GISni ilmiy-teknik adabiyotlarda ko'pchilik mualliflar u yoki bu muhim yo'nalishi, belgisi yoki boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha tizimlashga harakat qilmoqdalar. Eng ko'p tarqalgan tasnif bizningcha qo'yidagi xossalarga asoslangan bo'lishi kerak:

- maqsadiga ko'ra – foydalanish sohasi va hal etayotgan masalalari va vazifalari bo'yicha;

- muammoli-mavzuli yo'nalishiga ko'ra – qo'lanih sohasi bo'yicha;

- qamrab olgan hududiga ko'ra – mazkurm GIS malumotlari bazasini tashkil

etadigan raqamli kartografik malumotlar masshtablari qatori bo'yicha;

- geografik ma'lumotlarni tashkil etish usuliga ko'ra – kartografik ma'lumotlarni EHM xotirasiga kiritish formati, saqlashi, ishlov berishi va tasvirlashi bo'yicha.

GIS maqsadiga ko'ra - ko'p maqsadli, axborot-ma'lumotnomali, monitoring va inventarizatsion,

tadqiqotli, boshqaruqli, o'quv ishlariga mo'ljallangan, nashrli va boshqa yo'nalishli bo'lishi mumkin.

Muammoli – mavzuli yo'nalishiga ko'ra – ekologik va tabiattdan foydalanish maqsadlari uchun, ijtimoiy-iqtisodiy, yer kadastriga oid, geologik, muxandislik inshootlari va shahar ho'jaligi, favquloddagi vaziyatlar, ekologik, navigsion, transport, savdo-marketing, arxeologik va boshqa yo'nalishlarga ajratiladi. Qamrab olgan hududiga qarab – global, umummilliy, regional, lokal, sohalar miqyosidagi GISlarga bo'linadi. Geografik ma'lumotlarni tashkil etish usuliga qarab -vektorli, rastrli, vektor-rastrli yoki uch o'lchamli GISlar bo'lishi mumkin.

Har bir amaliy sohalarda o'ziga xos maxsus talablar, iboralar mavjud, lekin GIS boshqa axborot tizimlaridan farqli ravishda fazoviy geografik xususiyatlari axborotlar bilan ishlaydi.

Bugungi kunda GISni qo'llayotgan soha va tarmoqlar sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

1. Yer resurslarini boshqarish, yer kadastrida.

2. Ishlab chiqarish infratizimi, ularni boshqarish va obyektlar inventarizatsiyasida.

3. Shahar qurilishida, arxitektura, sanoat va transport qurilishini loyihalashda, muxandislik izlanishlarida va rejalashtirishda.

4. Istalgan soha bo'yicha mavzuli kartalashtirishda, atlaslar va mavzuli kartalarni tuzishda.

5. Dengiz kartografiyasi va navigatsiyasida.

6. Aeronavigatsion kartalashtirishda va havo kemalari harakatini boshqarishda.

7. Suv resurslarini boshqarish va suv kadastrida; suv obyektlarining inventarizatsiyasi va suvning mavsumiy va yillik holatlari hamda basharatlashda.

8. Navigatsiya va er transporti harakatini boshqarishda.

9. Masofadan turib zondlash va kosmik monitoringda.

10. Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni boshqarishda (suv, o'rmon xo'jaligi va boshqalarda).

11. Joy relyefini tasvirlash va tahlil qilishda.

12. Tabiiy muhitdagi jarayonlarni modellashirish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarni olib borishda.

13. Atrof muhit monitoringida, texnogen oqibatlarni baholashda, favqulodda va krizisli vaziyatlarni hal etishda.

14. Ekologik muammolarni belgilab, dolzarbiligini baholashda va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishda.

15. Yuk tashishni rejalashtirish va tadbirkorlikda.

16. Geologiya, mineral-xom ashyo resurslari va tog' jinslarini qazib olish sanoatlarida.

17. Transport va telekommunikatsiya tarmoqlarini maqsadli rivojlanishirishda.

18. Marketing va bozor iqtisodiyotini taxil qilishda.

19. Arxeologiyada.

20. Hududlar va shaharlarning rivojlanishini kompleks boshqarish va rejalashtirishda.

21. Havfsizlik, harbiy ish va razvedkada.

22. O'rta, maxsus va oliy talimda.

23. Qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda.

Ro'yxatda keltirilgan sohalarni bir nechta asosiy guruhlarga ajratsa bo'ladi:

birinchi guruhgaga hisob-ro'yxatli sohalarni kiritish mumkin, ularda GIS joyda bajarilgan o'lchashlar natijalariga tayanadi (masalan, yer kadastrini, katta korxonalarining taqsimlangan ishlab chiqarish infrastrukturasi boshqarish va boshqalar); ikkinchi guruhgaga, GIS tizimida boshqarish va qaror qabul qilish ishlarini bajarishga mo'ljallangan sohalarni; uchunchi guruhgaga modellashtirish va murakkab tahlillarni o'z ishlarini bajaradigan sohalarni kiritish mumkin. Ro'yxatdagi sohalardan eng ko'p GIS bilan ishlaydiganlari asosan, birinchi guruhgaga taalluqli. Shu sababli bugungi kunda amalda qo'llanilayotgan va foydalanimayotgan GISlarning ko'pchiligi o'lchash natijalarini qayta ishlab chiqishga va ularni tahlil qilishga mo'ljallangan.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda rekreatsiya turizmi bozorining barqaror rivojlanishi yangi kichik biznes subyektlari va o'z navbatida, yangi ishchi o'rinalarini yaratishga va unga turdosh bo'lgan tarmoqlarni rivojlanishirishga imkoniyat yaratmoqda. Jahonda rekreatsiya sohasini va unda kichik tadbirkorlikni rivojlanishirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishida qator ilmiy

Manba va foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alonso, A.D., & Ogle, A. (2010). *Tourism and hospitality small and medium enterprises and environmental sustainability. Management Research Review*, 33;

2. Азар В.И. Экономика и организация туризма. – М.: Экономика, 2003. – 322 с.; Квартальнов В.А.Менеджмент и маркетинг в социально-культурной сфере. Учеб.пособие. 2-е изд. – СПб.: Книжный дом, 2003. – 644 с.;

izlanishlar olib borilmoqda. Bunda turizm industriyasiga investitsiyalarni jalb qilish va turizmnинг iqtisodiyotdagи multiplikativ samarasini aniqlash muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda turizmi sohasini jadal rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish orqali turizm sohasini iqtisodiyotning yetakchi strategik sektoriga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olinganligi sababli turizm sohasining investitsion jozibadorligi va faolligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan xizmatlarning sifati va nomenklaturasi kengaydi. Uning tarkibiga turizm-ekskursiya xizmatlarining kirib kelishi viloyatda turizmnинг moddiy-texnik bazasini tashkil qilish va yanada rivojlantirish zaruriyatini tug'diradi. Bu o'z navbatida hozirgi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida yangi ish o'rinalarini ochilishiga erishishni ta'minlaydi.

Turistik resurslar mintaqada turizmni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab beruvchi omildir. Shu sababli ularni baholash, muhofaza qilish va foydalanish masalalarini echish bugungi kunda o'ta muhimdir. Ammo mintaqadagi mavjud turistik resurslar hozirgi kunda to'liq kadastrdan o'tmagan. Bu esa ularni ro'yxatga olish, salohiyatini o'rganish va baholashda bir qancha qiyinchiliklarni tug'dirmoqda.

Bu muammoni bartaraf qilish uchun turistik-rekreatsion kadastrni tuzishni tashkil qilish lozim. Turizm kadastri asosida turistik resurslarni pasportizatsiya qilish va iqtisodiy baholashni amalgalash mumkin.

Kadastrlashning asosiy maqsadi turizmni rivojlanishda zarur bo'lgan sarf-xarajatlarni aniqlash va ularning samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Turistik resurslar kadastrida ularning tavsifi, tasnifi va ro'yxati aniq belgilangan bo'lib, unda iqtisodiy samaradorlik darajasi, miqdor va sifat jihatdan bahosi, resurslardan foydalanishning asosiy istiqbollari hamda ularni muhofaza qilishning muhim jihatlari ko'rsatilishi lozim.

Hozirgi kunda o'zida boy tarixiy-madaniy me'rosga, noyob tabiiy salohiyatga ega bo'lgan mintaqalar uchun hududning tabiiy va tarixiy-madaniy yodgorliklarini, turizmga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini va turizm yo'nalishlarini hisobga olish, turistlar oqimini tahlil qilish, hududning rivojlashini rejalashtirish va boshqa vazifalarni yechishga yordam beruvchi keng profildagi amaliy geoaxborot tizimini shakllantirish zarur bo'lmoqda.

3. Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им.Г.В.Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. -248с.;
4. Кропинова Е.Г. Теория и практика формирования и развития трансграничных туристско-рекреационных регионов. дис. на уч.степен. г.ф.д. – Калининград, 2016 г. -176 с
5. Кусков. А.С, Голубева. В.Л, Одинцова. Т.Н. Рекреационная география. Учебно-методический комплекс. – М.: МПСИ, Флинта. 2005
6. Begg I. Innovative Directions for EU Cohesion Policy after 2020. CESifo Forum. 2018. <https://www.cesifo-group.de/DocDL/CESifo-Forum-2018-1-Begg-EU-Cohesion-Policy-march>.
7. Armstrong H, Taylor J. Regional Economics and Policy. 1993.Part II., European Regional Incentives.1997-1998 Edition. Bowker Saur,1997.
8. Морозов М.А. Информационные технологии в социально-культурном сервисе и туризме. Оргтехника. [Текст]: учебник для вузов по специальности
9. A.A. Ibraimova, Sotsial-iqtisodiy kartografiya [Matn]:o'quv qo'llanma-Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2020.-306b.
10. www.lex.uz
11. www.stat.uz
12. www.tourism.uz
13. Saidov Mashal Samadovich (2023). Improving Management Efficiency at Oil and Gas Industry Enterprises in Uzbekistan. Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 25, Jan-2023. P. 15-24. ISSN 2697-2212 Available Online: <https://economics.academicjournal.io>
14. Saidov Mashal Samadovich (2023). Ways of introduction of modern management mechanisms in the electric power sector of Uzbekistan. International Journal of Business Diplomacy and Economy Volume 2, No 1 | Jan- 2023. P. 98-110. <https://inter-publishing.com/index.php/ijbde>
15. Saidov M., Raximberdiev X. Organization of Production and Management of New Enterprises. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN 2576-5973 (online), Published by "Global Research Network LLC" under Volume: 6 Issue: 1 in Jan-2023. P. 178-184. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm>
16. Saidov M., Ro'ziev E. Features of the System of Digital Information and Communication Technologies in the Management of Companies. MANAGEMENT ISSN 2576-5973 (online), Published by "Global Research Network LLC" under Volume: 6 Issue: 1 in Jan-2023 P. 196-202. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm>



RESPUBLIKANING PROFESSIONAL TURIZM KADRLARGA EHTIYOJI

Ochilova Xilola Farmonovna -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Sadullaev Alisher Akmalovich -
magistratura 2 bosqich talabasi, TDIU

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a80

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli rejalar bilan bog'liq bo'lishi kerak bo'lgan O'zbekiston Respublikasining turizm xodimlaridagi prognoz qiyatlari hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, ushbu rejalar respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari doirasida aholi bandligini ta'minlash va aholi bandligini ta'minlash siyosatining tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Bunday tizimli yondashuv professional turizm xodimlariga bo'lgan ehtiyoj prognozlarini to'g'ri va asosli amalga oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, turizm prognози, turizm sanoati, ta'lim.

ПОТРЕБНОСТЬ РЕПУБЛИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ТУРИСТСКИХ КАДРАХ

Очилова Хилола Фармоновна -
Ташкентский государственный экономический
университет, к.э.н., доцент
Садуллаев Алишер Акмалович -
магистр 2 курса гр. MTXT-21, ТГЭУ

Аннотация. В данной статье рассчитаны прогнозные значения Республики Узбекистан в туристских кадрах, которые необходимо связать с перспективными планами развития туринаустрии. Кроме того, эти планы должны быть неотъемлемой частью политики трудоустройства и занятости в рамках государственных программ социально-экономического развития областей республики. Подобный системный подход позволит точно и аргументировано реализовывать прогнозы потребностей в профессиональных туристских кадрах.

Ключевые слова: потребность в кадрах, прогноз туризма, туринаустрия, образование